



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar-iyun oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 733,6 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 121,9 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **733,6** **+21,9 %**

(2023- y.: **601,5**)



Saldo

2024- y.: **284,2** (2023- y.: **- 16,1**)




Eksport

2024- y.: **508,9** **+73,8 %**

(2023- y.: **292,7**)

TSA'dagi ulushi, %da



Import

2024- y.: **224,7** **- 27,2 %**

(2023- y.: **308,8**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralarga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 508,9 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 173,8 % ni tashkil etdi) va import hajmi 224,7 mln. AQSH dollariga (72,8 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 284,2 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Fransiya TSA – 376,3 Eksport: 375,3 Import: 1,0  51,3 %	Rossiya TSA – 101,2 Eksport: 44,1 Import: 57,1  13,8 %	XXR TSA – 73,3 Eksport: 1,8 Import: 71,5  10,0 %	Qozog‘iston TSA – 34,7 Eksport: 12,6 Import: 22,1  4,7 %	Turkiya TSA – 29,7 Eksport: 17,2 Import: 12,5  4,1 %
Daniya TSA – 14,2 Eksport: 12,9 Import: 1,3  1,9 %	Afg‘oniston TSA – 13,6 Eksport: 13,5 Import: 0,1  1,8 %	Yaponiya TSA – 12,0 Eksport: - Import: 12,0  1,6 %	Germaniya TSA – 10,1 Eksport: - Import: 10,1  1,4 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 6,9 Eksport: 6,3 Import: 0,6  0,9 %

Navoiy viloyati jahonning 57 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiya (51,3 %), Rossiyada (13,8 %), XXRda (10,0 %), Qozog‘istonda (4,7 %) va Turkiyada (4,1 %) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Fransiya	62,1	196,6	376,3
<i>Eksport</i>	60,4	193,7	375,3
<i>Import</i>	1,7	2,9	1,0
Rossiya	121,0	102,1	101,2
<i>Eksport</i>	44,4	21,3	44,1
<i>Import</i>	76,6	80,8	57,1
XXR	93,2	76,9	73,3
<i>Eksport</i>	1,0	5,4	1,8
<i>Import</i>	92,2	71,5	71,5
Qozog'iston	55,8	31,4	34,7
<i>Eksport</i>	11,3	8,5	12,6
<i>Import</i>	44,5	22,9	22,1
Turkiya	37,4	36,9	29,7
<i>Eksport</i>	23,3	21,8	17,2
<i>Import</i>	14,1	15,1	12,5
Daniya	-	5,2	14,2
<i>Eksport</i>	-	4,2	12,9
<i>Import</i>	-	1,0	1,3
Afg'oniston	6,5	9,9	13,6
<i>Eksport</i>	6,5	9,9	13,5
<i>Import</i>	-	-	0,1
Yaponiya	1,9	19,9	12,0
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,9	19,9	12,0
Germaniya	8,0	5,8	10,1
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	8,0	5,8	10,1
Qirg'iz Respublikasi	10,1	7,1	6,9
<i>Eksport</i>	8,8	5,6	6,3
<i>Import</i>	1,3	1,5	0,6

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Eron	8,8	4,3	6,3
	<i>Eksport</i>	2,6	1,1	3,9
	<i>Import</i>	6,2	3,2	2,4
	Litva	9,6	8,3	5,5
	<i>Eksport</i>	8,2	2,0	4,4
	<i>Import</i>	1,4	6,3	1,1
	Buyuk Britaniya	0,2	1,5	5,3
	<i>Eksport</i>	-	-	0,3
	<i>Import</i>	0,2	1,5	5,0
	Turkmaniston	10,5	1,1	5,1
	<i>Eksport</i>	9,3	0,9	4,0
	<i>Import</i>	1,2	0,2	1,1
	Koreya Respublikasi	12,0	11,5	4,9
	<i>Eksport</i>	-	0,1	-
	<i>Import</i>	12,0	11,4	4,9
	AQSH	2,0	1,7	4,8
	<i>Eksport</i>	0,4	-	2,6
	<i>Import</i>	1,6	1,7	2,2
	Italiya	1,2	1,8	3,4
	<i>Eksport</i>	0,1	1,1	-
	<i>Import</i>	1,1	0,7	3,4
	Chexiya	0,8	4,7	3,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,8	4,7	3,0
	Hindiston	12,6	16,4	2,8
	<i>Eksport</i>	-	10,9	-
	<i>Import</i>	12,6	5,5	2,8
	Tojikiston	2,1	2,6	2,8
	<i>Eksport</i>	2,0	2,5	2,7
	<i>Import</i>	0,1	0,1	0,1



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyun, ming AQSH doll.)*



2023- y.


2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 63,4 % ulush bilan 465 093,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,2 % ulush bilan 1 370,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



NAVOIY VILOYATININGTASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 21,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,1 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 78,7 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, 156,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 74,3 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 82,3 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)


Rossiya – 13,8		Qozog'iston – 4,7	
Qirg'iz Respublikasi – 0,9		Turkmaniston – 0,7	
Tojikiston – 0,4		Belarus – 0,2	
Ozərbayjon – 0,2		Ukraina – 0,2	



Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (13,8 %), Qozog'iston (4,7 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (0,9 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 144,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 64,5 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 79,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 508,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 73,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun ulushi % da)



Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	292,7	508,9	108,2	173,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,8	19,1	155,8	120,6	5,4	3,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,0	13,7	42,3	114,1	4,1	2,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8,9	13,9	3,6 m.	156,5	3,0	2,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	1,3	93,0	26,3 m.	-	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	209,5	383,2	130,9	182,9	71,6	75,3
Sanoat tovarlari	37,9	66,1	64,2	174,4	12,9	13,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,5	0,5	-	97,7	0,2	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	7,5	10,6	87,4	141,4	2,6	2,1
Xizmatlar	0,5	0,5	31,0	94,7	0,2	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (75,3 %), sanoat tovarlari (13,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,7 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-iyun)


 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19 076,3	120,6
Sabzavotlar va mevalar	7 491,4	127,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	10 287,0	104,6
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 296,2	-
Tirik hayvonlar	1,7	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13 751,1	114,1
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 661,2	3,7 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	3 802,5	3,5 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	236,3	19,1 m.
Metall rudalari va metall parchalari	7 051,1	68,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	13 932,9	156,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	13 932,9	156,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 322,5	26,3 m.
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 322,5	26,3 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	383 187,7	182,9
Noorganik kimyo moddalari	377 153,1	183,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4,4	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	4 700,8	2,3 m.
O'g'itlar	764,7	14,2 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	38,3	360,9 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	19,3	1,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	507,1	2,2 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	66 061,3	174,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	41 444,9	149,4
Rangli metallar	11 549,2	4,9 m.
Cho'yan va po'lat	132,1	112,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	12 627,5	172,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	229,9	128,7
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,0	39,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	75,7	1 201,7 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	473,1	97,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	62,0	143,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	143,0	2,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	268,1	72,1
Turli xil tayyor buyumlar	10 623,3	141,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	9 364,3	129,7
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	640,5	2,4 m.
Poyabzal	365,3	61,2 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	253,2	463,7 m.
Xizmatlar	467,6	94,7
Moliyaviy xizmatlar	311,2	100,7
Transport xizmatlari	95,8	2,6 m.
Safarlar	60,6	41,0

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariga 74,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 14,6 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Turkiya, Afg'oniston, Daniya, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	193 744,3	375271,8	193,7	1
Rossiya	21 311,8	44089,5	2,1 m.	2
Turkiya	21 775,1	17240,8	79,2	3
Afg'oniston	9 912,0	13473,4	135,9	4
Daniya	4 149,4	12907,7	3,1 m.	5
Qozog'iston	8 465,3	12585,6	148,7	6
Qirg'iz Respublikasi	5 587,3	6322,9	113,2	7
Litva	1 996,8	4400,2	2,2 m.	8
Turkmaniston	892,3	4031,9	4,5 m.	9
Eron	1 063,8	3904,1	3,7 m.	10
Tojikiston	2 498,9	2693,6	107,8	11
AQSH	3,2	2550,4	796,5 m.	12
Xitoy Xalq Respublikasi	5 368,4	1826,9	34,0	13
Belarus	2 183,8	1467,3	67,2	14
Pokiston	261,8	1264,2	4,8 m.	15
Ukraina	140,9	1220,4	8,7 m.	16
Ozarbajjon	311,4	1083,3	3,5 m.	17
Armeniya	68,9	789,2	11,4 m.	18
BAA	20,6	473,4	23,0 m.	19
Estoniya	104,9	279,8	2,7 m.	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, ming AQSH doll.)*



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 79,1 % bilan 402 339,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,1 % bilan 403,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyun oylarida 10 427,8 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 125,2 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (64,2 %), Afg'oniston (14,0 %) hamda Pokiston (10,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 6 070,6 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyun, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Pomidor 668,9 ming AQSH dollari 799,4 tonna  94,4 % ↓	Piyoz 747,1 ming AQSH dollari 4 791,0 tonna  3,9 m. ↑	Uzum 249,3 ming AQSH dollari 204,6 tonna  16,3 % ↓	Yong'oklar 124,1 ming AQSH dollari 125,5 tonna  6,7 % ↓
Karam 136,9 ming AQSH dollari 356,6 tonna  90,6 % ↓	Bodring 52,9 ming AQSH dollari 69,0 tonna  65,5 % ↓	Sitrus mevalar 10,6 ming AQSH dollari 9,0 tonna  67,7 % ↓	Loviya 1 484,1 ming AQSH dollari 328,1 tonna  3,3 m. ↑



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-iyun)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	9 093,1	3 898,2	64,2
 Afg'oniston	224,2	848,5	14,0
 Pokiston	103,9	635,6	10,5
 Xitoy Xalq Respublikasi	276,1	311,5	5,1
 Turkmaniston	124,6	106,3	1,8
 Litva	234,3	66,1	1,1
 Eron Islom Respublikasi	37,8	49,2	0,8
 Latviya	122,0	38,0	0,6
 Estoniya	129,5	31,3	0,5
 Boshqa davlatlar	82,3	85,9	1,4

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston (64,2 %), Afg'oniston (14,0 %) va Pokiston (10,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha 15 997,5 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,1 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 26,8 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (58,0 %), sintetik, jut tolalar (15,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 10 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, ming AQSH dollari)




Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 467,6 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (66,5 %), transport xizmatlari (20,5 %) va safarlar turizm xizmatlari (13,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 224,7 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 72,8 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (40,4 %), sanoat tovarlari (26,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (16,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi 218,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 6,5 mln. AQSH dollariga etdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	308,8	224,7	103,3	72,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,6	15,1	177,3	97,3	5,0	6,8
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	-	-	0,03
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,0	5,0	88,3	99,1	1,6	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,9	0,7	9,8	78,8	0,3	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,4	1,6	2,2 m.	66,2	0,8	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	40,1	37,5	68,8	93,4	13,0	16,7
Sanoat tovarlari	74,1	59,5	92,2	80,3	24,0	26,5
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	146,2	90,8	129,3	62,1	47,3	40,4
Turli xil tayyor buyumlar	12,0	7,9	78,2	65,7	3,9	3,5
Xizmatlar	12,5	6,5	172,7	52,4	4,1	2,9



XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun)

XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15 123,6	97,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	12 049,0	91,7
Kofe, choy, kakao,ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	313,9	85,7
Sabzavotlar va mevalar	1 737,9	5,2 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (iyundalanmagan donlardan tashqari)	356,4	98,1
Tirik hayvonlar	415,3	39,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	251,1	93,0
Ichimliklar va tamaki	60,7	147,9
Ichimliklar	60,7	147,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	4 970,5	99,1
Probka va yog‘och-taxtalar	922,9	155,3
O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	602,0	157,0
Yog‘li urug‘lar va yog‘li mevalar	682,3	3,9 m.
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 559,9	66,6
Tabiiy kauchuk	10,5	67,0
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	192,9	109,6 m.
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	711,8	78,8
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	646,5	73,9
Ko‘mir, koks va briketlar	65,3	2,3 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1 586,8	66,2
O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 552,5	65,5
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan mumlar	34,3	139,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	37 461,4	93,4
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 250,9	90,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	11 250,4	74,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14 705,3	138,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	193,1	10,4
Noorganik kimyo moddalari	5 096,6	110,1
Organik kimyo moddalari	2 071,8	100,5
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	2 659,6	67,3
O‘g‘itlar	3,8	5,6
Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	229,9	59,2


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	59 511,3	80,3
Cho'yan va po'lat	5 086,6	74,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	5 414,1	126,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 106,2	2,1 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 266,0	7,2
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	165,8	44,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 259,6	134,2
Rangli metallar	43 189,0	148,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	23,8	13,6
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	90 782,8	62,1
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	5 607,7	20,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	35 936,2	67,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	15 175,9	76,4
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	9 153,8	82,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	18 184,3	3,3 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	3 889,8	139,3
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	122,4	14,4
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2 712,7	85,8
Turli xil tayyor buyumlar	7 914,8	65,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	5 383,4	121,9
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 157,5	68,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 157,9	19,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	105,7	97,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	57,2	47,6 m.
Poyabzal	43,5	67,9 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	6,1	92,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	3,5	3,6 m.
Xizmatlar	6 530,1	52,4
Transport xizmatlari	5 200,7	71,0
Safarlar (turizm xizmatlari)	32,5	3,6 m.
Boshqa xizmatlar	1 296,9	25,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-iyun oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,5 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati 53 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya) jami importning 84,7 % ini tashkil qiladi, bu 190,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, % da)







NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Xitoy Xalq Respublikasi	71 499,2	71 484,7	100,0	1
Rossiya	80 777,3	57 134,1	70,7	2
Qozog'iston	22 915,7	22 072,8	96,3	3
Turkiya	15 130,1	12 490,7	82,6	4
Yaponiya	19 910,2	12 032,7	60,4	5
Germaniya	5 787,8	10 103,0	174,6	6
Buyuk Britaniya	1 534,6	4 962,7	3,2 m.	7
Koreya Respublikasi	11 435,1	4 894,6	42,8	8
Italiya	641,6	3 441,7	5,4 m.	9
Chexiya	4 733,0	2 953,1	62,4	10
Hindiston	5 527,5	2 826,2	51,1	11
Eron	3 168,9	2 391,4	75,5	12
AQSH	1 706,8	2 212,3	129,6	13
Latviya	23 785,8	1 515,0	6,4	14
Polsha	2 261,5	1 391,8	61,5	15
Daniya	1 002,5	1 297,3	129,4	16
Estoniya	2 145,1	1 149,4	53,6	17
Turkmaniston	206,8	1 130,2	5,5 m.	18
Litva	6 270,3	1 052,6	16,8	19
Fransiya	2 858,5	967,7	33,9	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, ming AQSH doll.)




Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 59,5 % bilan 133 606,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,2 % bilan 454,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 6 530,1 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 2,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (79,6 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,5 %) va boshqa xizmatlar (19,9 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 59 511,3 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,3 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 26,5 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun)



2024- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 40 787,5 ming AQSH dollari (68,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi 6 903,6 ming AQSH dollari (11,6 %) va Qozog'iston 5 728,0 ming AQSH dollari (9,6 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.